

NAVRO‘Z TARIXI VA TALQINI

Djumayeva Moxira Turaqulovna¹MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.12.2024

Revised: 24.12.2024

Accepted: 25.12.2024

Ushbu maqolada Navro‘z tarixi va talqinining qadim yozma manbalar hamda folklor namunalaridagi tahlili haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada Navro‘z bilan bog‘liq bir qator qadimiy marosimlar atroflicha yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR:

*Navro‘z, yangi yil,
boychechak sayli, epos,
Go‘ro‘g‘li, ko‘pkari,
marosim, Ashshadarozi,
folklor.*

KIRISH. Qadim va bezavol sharqona bayram Navro‘zni elimizda obodlik, tinchlik-totuvlik, millatlararo ahillik, bag‘rikenglik ramzi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma‘lumki, Navro‘z umumjahon bayrami sifatida istiqlol arafasida, rasmiy va xalq bayrami maqomini oldi. Asrlardan omon o‘tib kelgan qadrdon va ko‘hna Navro‘z YUNESKO tomonidan 2009-yilda insoniyatning nomoddiy madaniyat merosi ro‘yxatiga kiritildi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma‘lum. Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an’ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir”²³.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra ko‘hna va umummilliy bayramlar sirasiga kiruvchi Navro‘z sir emaski, bugungi kunda siyosiy-rasmiy tus olgan. Navro‘z tarixi, bayram tartibi va unda kuylangan folklor namunalari haqida qator maqola va kitoblar nashr etilgan [2; 4; 5; 7; 8]. Bu faktlar Navro‘z bayramining paydo bo‘lish muddatini ko‘rsatishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biz bu o‘rinda Navro‘z bilan bog‘liq bir qator qadimiy marosimlarga alohida e’tiborni qaratamiz.

Yangi yil, ya’ni Navro‘z qish va yoz (ikki qutb)ning o‘zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi. Navro‘zni kutib olish, tantana qilish jarayonida o‘tuvchi

²³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 06.04.2019.<https://president.uz/uz/2476>

barcha marosim halqalari ana shu kurashni tasvirlashga, ifodalashga yo'naltirilgan. Ushbu o'rinda Farg'onada o'tuvchi Navro'z bayrami haqidagi xitoy manbasidan keltirgan ko'chirma muhim ahamiyatga ega: "Har yangi kelayotgan yilning avvalida, podsho va darg'alar boshchiligida xalq ikki guruhga bo'lingan. Har bir guruh bittadan vakil saylab, unga jang kiyimlarini kiydirib o'zaro jang qildirishgan, qolganlar esa raqib tomonga tosh-u kesaklar otib, o'z jangchilariga yordam berib turishgan. Jang tomonlarning biri halok bo'lgunicha davom qilgan. So'ngra jang natijalariga qarab yangi yilning qanday kelishi taxmin etilgan" [3].

S.P.Tolstov ushbu marosimni ibtidoiy xalqlar orasida keng tarqalgan ikki fratriyning marosimiy musobaqasi ekanligini yozar ekan, Sharqiy Turkistondagi Kuchi shahrida yangi yilni kutishda yetti kun davomida o'tuvchi qo'chqor, ot, tuya urishtirib yilning qanday kelishini aniqlash tantanalari va O'rta Osiyodagi uloq (ko'pkari) hamda turkmanlar orasidagi "ko'k bo'ri" to'y marosimini ham ana shu tizimda tahlil etadi [3, 284].

Biz uchun e'tiborli jihat, ushbu o'rinda ko'pkari (uloq) va ko'k bo'ri nikoh to'yi marosimidagi bo'ri va uloq (echki) obrazlaridir. Ko'k bo'ri marosimida uloq yoki qo'zichoqni (aslida, uloq varianti to'g'ri) otda o'ngarib qochayotgan kelinni kuyov o'z jo'ralari bilan ta'qib qilib, undan uloqni olib qo'yishi kerak (qozoqlar o'rtasidagi qiz quvdi marosimi ham ana shu tizimda turadi. Faqat u o'rinda uloq unutilgan). Ushbu marosimning tub asoslari ham yil fasllari o'rtasidagi qutblar holati, kurashi va birligiga ulanadi. Uloq – ko'klam, bo'ri esa qish timsoli. Qiz – uloq – ko'klam, yigit – bo'ri – qish yaxlit tizimni tashkil etadi. Uloq (ko'pkari) o'yinining qish vaqti o'tkazilish an'anasi ham bekor emas. Boysun tumanining olis qishlog'ida Navro'z kuni ijro etiluvchi "Gurgak" o'yini ham bevosita ana shu tasavvurlarga bog'liq [5, 148].

"Go'ro'g'li" eposida qahramon onasi – Hiloloy (Aqanay)ning Oy, Al, Echki (uloq), Olma bilan bog'liq tasavvurlar tizimida turishi va xalqimizning hosildorlik, ko'klam, oila va uy o'chog'i topinchlari zahirida shakllanganligini aytilgan. Bu o'z navbatida, yuqorida keltirilgan tasavvurlar marosimlarga uyg'un keladi [6].

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl-ko'rinishlarda hozirgacha amal qilib kelayotgan "Boychechak" marosimi ham ushbu tizimning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Marosimni nisbatan to'laroq halqalarini Namangan viloyatining Chortoq tumani hududida kuzatish mumkin. Bu yerda bolalar erta ko'klam boychechakni topib, bir guruh bo'lib, jo'raboshi etagida xonadonma-xonadon kezib chiqishadi. Xonadon sohibi jo'raboshi tutib turgan boychechakni ko'rib, tavob qilib, himmatiga yarasha boychechakchilarga ul-bul beradi. Uy egasi xasislik qilib hech narsa bermasa, boychechakchilar yomon tilak bildiradi. Qadimda o'tgan "Boychechak" marosimida qish va ko'klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo'lgan. Boychechak tutgan jo'raboshi ko'klam siymosida o'z sheriklari – aniqrog'i, jangchilari bilan xonadonma-xonadon yurib qishni haydagan. Qish siymosi va jangchilarini ifodalovchi tomon qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bir-bir chekinib xonadonlarni va

nihiyat, butun qishloqni tark etgan. Qish va ko'klam o'rtasidagi asosiy kurash katta dalada bo'lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo'shiq kuylab bahslashganlar.

Xorazmda sumalak sayli bilan aloqador bo'lgan "Ashshadarozi" o'yini [8, 43-44] va unda aytiluvchi laparning tub asoslarini qish va yoz munozarasi sifatida baholash o'rinli. Ushbu laparni marosimdan butkul ajralib, sof san'at namunasiga aylangan versiyasi sifatida Farg'ona vodiysida keng yoyilgan "Sochingni uzun deydilar" laparini keltirish mumkin. Ushbu lapar matnida "qish"ning so'rog'i va "ko'klam"ning javoblari asl mohiyatga yaqin turibdi. Laparda yigit qizning sochi, qoshi, ko'zi, yuzi, beli, qanday ekanligini so'raydi. Qiz esa ko'klamdagi tabiat tasviri orqali o'zini ta'rif etadi [2, 90-92]. Bizning nazarimizda, "Kichkinajon-kichkina" qo'shig'i ushbu aytishuv, bahsning so'nggi nuqtasi bo'lgan. Ya'ni qo'shiqni kuylab, o'rtadagi raqqosni ma'lum obrazlarga taqlidan kichrayib borishi barobarida tariq timsoliga kelishi, buni raqsdan ko'rsatishi ko'klamning qishni yengib

urug' (tariq) holatiga keltirishini ifoda qilgan. S.P.Tolstov o'zi keltirgan faktlarni tahlil etar ekan, ularning tub asosini zoorastrizmdan ham ancha qadimiyroq bo'lgan ibtidoiy odamning animistik tasavvurlari zahirida an'analashganligini yozadi [3, 291].

Yuqorida keltirilgan qiyoslar va xulosalar Navro'z bayramining yoshini belgilashda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki bugungi kunda olimlarimiz tomonidan uch ming-besh ming yillik tarixga ega, degan sanani ancha uzoqqa cho'zish imkonini beradi. Shu o'rinda folklorshunos F.Jabborovning "Yangi quyosh bayrami" [12] nomli maqolasida Amerika tub aholisi hisoblanmish Mayya va boshqa qabilalardagi xalqlar mavsumiy marosimlari, xususan yangi yil atamallari, o'tish muddatining turkiy xalqlar bilan uyg'un kelishi va Amerika tub aholisining Bereng bo'g'ozini orqali Sibir tarafidan o'tganligi va bu ko'chish davri kamida o'ttiz – ellik ming yillik davr, deb belgilanayotgani ba'zida ayni sanani yuz ming yil, deb ko'rsatayotganini yodga olsak, Navro'z bayrami yoshini yanada uzoqdan kelayotganiga ishonch hosil qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 06.04.2019. <https://president.uz/uz/2476>
2. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари / Тўпловчи Музайяна Алавия. – Тошкент: Фан, 1972. – 232 б.
3. Толстов. С.П. Древний Хорезм. – Москва, Ленинград: Наука, 1948. – 352с.
4. Бўриев О. Наврўз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. -63 б.
5. Жўраев М. Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – 230 б.
6. Турдимов Ш. "Гўрўғли"дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари". – Тошкент: Фан. 2010 .

-
7. Турдимов Ш.Г. Бойчечак маросими // Мактабгача тарбия. – Тошкент, 1992. -№ 3-4. – Б. 40–41
 8. Турдимов Ш.Г, Ж. Эшонкулов. Наврўз нашидаси. Наврўз байрами билан боғлиқ кўшиқлар, ғазаллар, шеърлар (Тадқиқот мажмуа) – Тошкент: Фан, 2009. – 260 б.
 9. Турдимов Ш.Г. “Гўрўғли” туркумида Хизр образи // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1-китоб. – Тошкент: Фан. 2006. – Б. 53-59.
 10. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Т.: Фан, 2011. – 240 б.
 11. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – 240 б.
 12. Жабборов Ф. Янги қуёш байрами // Маънавий ҳаёт. 2022, №1. Б.26–29.